


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**




5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
4-kurs H-402-guruh talabasi

Xursanaliev Xurshidjon Xasan o'g'li

**"YOSHLAR O'RTASIDA DINIY-EKSTREMISTIK G'OYALAR
TARQALISHINING OLDINI OLISH VA DINIY VAZIYATNI
SOG'LOMLASHTIRISH" mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY IShI

Ilmiy rahbar: "Milliy g'oya va
ma'naviyat asoslari" kafedrasi
professori t.f.d. I.Xoliqov
2020 yil 03 iyun



"Himoyaga tavsiya etilsin"
"Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari"
kafedrasi mudiri N.K. Jamalov
yu.f.n., dots. N.K. Jamalov
2020 yil 03 iyun

Toshkent – 2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Tarix fakulteti dekani
_____ dots. V.T. Ishquvatomov
2020 yil “_____” _____

5111600 – Milliy g'oya, ma'nayiyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
4-kurs H-402-guruh talabasi

Xursanaliev Xurshidjon Xasan o'g'li

**“YOSHLAR O'RTASIDA DINIY-EKSTREMISTIK G'OYALAR
TARQALISHINING OLDINI OLISH VA DINIY VAZIYATNI
SOG'LOMLASHTIRISH” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY IShI

Ilmiy rahbar: “Milliy g'oya va
ma'nayiyat asoslari” kafedrasi
professori t.f.d. _____ I.Holiqov
2020 yil “_____” _____

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Milliy g'oya va ma'nayiyat asoslari”
kafedrasi mudiri _____
yu.f.n., dots.N.K. Jamalov
2020 yil “_____” _____

Toshkent – 2020

KIRISH

I-BOB. JAMIYATNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTIDA EKSTREMIZM, TEROORIZM FENOMENINI TAHLIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mazmuni va mohiyati.
- 1.2. O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish, diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan siyosatning mohiyati.

II -BOB. DINIY-EKSTREMISTIK G‘OYALAR GLOBALLAShUVI ShAROITIDA DINIY VAZIYATNI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI DOLZARB VAZIFALARI

- 2.1. Diniy – ekstremistik g‘oyalarning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 2.2. IShID fitnasi vauning insoniyat boshiga solayotgan kulfatlari.
- 2.3. O‘zbekistonda diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olishda mafkuraviy profilaktika oldidagi vazifalar.

III -BOB. YoShLAR O‘RTASIDA DINIY-EKSTREMISTIK G‘OYALAR TARQALISHINING OLDINI OLISH VA DINIY VAZIYATNI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI.....

- 3.1. Yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish va diniy vaziyatni sog‘lomlashtirish mavzusini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
- 3.2. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI.

ILovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Globallashuv sharoitida diniy ekstremistik g‘oyalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tezkorlik, ochiqlik, erkinlik tamoyillariga asoslangan integratsiya jarayonlarining chuqurlashishi, o‘z navbatida, jamiyat barcha sohalarining shiddat bilan rivojlanishiga keng yo‘l ochmoqda. Biroq, shunday bo‘lsa-da, hozirgi davr umumbashariy ahamiyatga molik jiddiy muammolarning chuqurlashib borayotgani bilan ham o‘ziga xos jihatga ega bo‘lib, «Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojarov va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm hafvi bizdan doimiy ogoh va xushyor bo‘lishni talab etmoqda»¹. Bir tomondan yangi tashkil topgan davlatlardagi milliy va diniy o‘zlikni anglash jarayonlari kechayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, madaniyatlararo o‘zaro ta’sirlashish kuchayib, jamiyat sohalari doirasida global yaxlitlashish tendensiyasi vujudga kelmoqda. Ayni paytda, turli siyosiy kuchlar tomonidan diniy omildan g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanishning yangi usul va vositalarining qo‘llanilishi diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm muammolarining chuqurlashib borishiga olib kelmoqda. Mavzuning dolzarbliji globallashuv sharoitida ko‘p konfessiyali O‘zbekistonning global diniy makonda tutgan o‘rni va unga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq. Tadqiqot mavzusining dolzarbliji yana quyidagilar bilan ifodalanadi:

Birinchidan, axborot texnologiyalari globallashuvi diniy jarayonlarni ham keng qamrab olmoqda. Bunda tezkorlik, yuksak texnologik imkoniyatlar tufayli konfessional darajadagi hamda jahon dinlari o‘rtasida o‘zaro ta’sirning kuchayishi, diniy tashkilotlar sonining, jumladan terroristik ruhdagi guruhlarning ham ortib borishi kabi hodisalar muhim o‘rin tutmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda,

¹ Mirziyoyev M.Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. “JAMIYAT” gazetasi 2016 yil 16 dekabr

ushbu omillarni kompleks tahlil qilish diniy sohadagi globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, so‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida, jumladan mamlakatmizda diniy qadriyatlar, erkinliklar, diniy ta’lim jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu diniy e’tiqodning qayta faollashuvi, diniy ma’rifatga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi hosilasidir. Biroq, diniy ekstremistik oqimlar faoliyatining kengayib borishi ham ushbu jarayon bilan bir vaqtida sodir bo‘lmoqda. Ekstremistik kayfiyatdagi markazlar o‘zlarining katta moliyaviy imkoniyatlarini, targ‘ibot tizimini ishga solib birinchi yoshlar qalbi va ongini nishonga olishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya sohasining rivojlanish xususiyatlarini atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi. Mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid davlat siyosati hg‘am “yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalardan himoya qilish”¹ masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Uchinchidan, xalqaaro maydonda dini niqobi ostidagi ekstremistik, terroristik hatti-harakatlar tomonidan qo‘shti Afg‘oniston, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikaning ayrim mamlakatlarida sodir etilayotgan harbiy harakatlar minglab insonlarning xayotiga zomin bo‘ldi. Bu tusdagi kuchlarning orqasida kimlar turgani, ularning maqsadlari, manfaatlari nimalardan iborat ekanini yoshlar tushuntirib borish zarur. Agar bu kuchlarning asl qiyofasini ochib bersak yoshlar o‘rtasida ekstremistik g‘oyalarning tarqalmasligiga o‘z hissamizni qo‘sha olamiz.

To‘rtinchidan, din niqobi ostidagi vayronkor xatti-harakatlar shu yo‘nalishdagi ziddiyatlarning avj olishiga sabab bo‘lmoqda. Demokratlashuv jarayonlari kechayotgan bugungi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirishda diniy omildan foydalanan harakatlari ham davom etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, diniy asosdagi ziddiyatlarning oldini olish, diniy vaziyatning sog‘lomlashtirish

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” Qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son)

yo‘llarini aniqlash, masalaga demokratik nuqtai nazardan yondashish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda esa, tadqiqot mavzusining dolzarblii globallashuv sharoitida diniy soha rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini diniy-falsafiy tadqiq etish zaruriyati bilan belgilanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy barqarorlik, ekstremizm, terrorizm hodisalari, uning mazmun-mohiyati, ijtimoiy havfi, dinlararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik kabi masalalar barcha davrlarda ijtimoiy fanlar vakillarining diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan. Xalqaro vaziyat chigallashayotgan bir paytda ushbu masalalarga bo‘lgan ilmiy qiziqish uzlusiz kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha globallashuv jarayonining ijtimoiy-tarixiy mohiyati, jamiyat sohalarida namoyon bo‘lish xususiyatlari bilan bog‘liq masalalarning atroflicha tahlili O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqida¹, 2017 yil 15 iyundagi “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik” mavzusidagi nutqida Markaziy Osiyodagi vaziyat, havfsizlikka tahdidlar, ekstremizm, terrorizm masalalari, bunday tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikni ta’minalash masalalariga, bu boradagi ustuvor vazifalarga keng e’tibor qaratib keladi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov ham o‘z asarlarida chiqishlarida Markaziy Osiyodagi havfsizlik masalasini keng tizimli tahlil etishga, uning yechimida hamkorlikda harakat qilishga keng jamoatchilik e’tiborini qaratib kelgan².

So‘nggi yillarda Ekstremizm, terrorzim hodisalari, uning mazmun-mohiyati, ijtimoiy havfi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, dinlararo munosabatlar, diniy

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-592 b.

² Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 364 b.; Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 380 b.; Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 366 b.; Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 349 b.; Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 384 b.; Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. 6-jild. –T.: O‘zbekiston, 1998. – 429 b.; Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 410 b

bag‘rikenglik kabi masalalarning turli jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlar respublikamiz olimlari tomonidan ham amalga oshirilmoqda. Bu borada Sh.G‘oyibnazarov, A.Tulepov, S.M.Adilxodjayeva, R.Alimov, U.Ubaydullaev, A.S.Ochildiyev, S.Otamurodov, X.Jumaniyozov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida ekstremistik, terroristik hatti-harakatlar hodisasining turli qirralarini yoritganlar. Bunday harakatlarning kelib chiqish sababalri, faoliyatları, ulardan yoshlarni himoya qilish masalalariga o‘z e’tiborlarini qaratishgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Markaziy Osiyoda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan O‘zbekiston tomonidan olib borilayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati, yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish va diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini falsafiy tahlil etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida dunyo diniy manzarasining o‘zgarib borish xususiyatlarini tahlil qilish;
- ta’lim jarayonida terrorizm, ekstremizm tushunchalarining mohiyati va mazmuni tahlil qilish;
- O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish, diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan siyosatning mohiyatini o‘rganish;
- diniy – ekstremistik g‘oyalarning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganish;
- ta’lim jarayonida IShID fitnasi vauning insoniyat boshiga solayotgan kulfatlarini yortib berish;
- O‘zbekistonda diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olishda mafkuraviy profilaktika oldidagi vazifalarga doir xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ularni hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan O‘zbekiston tomonidan olib borilayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati, yoshlar

o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish va diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishning o’ziga xos xususiyatlarini falsafiy tahlil etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuv kuchayotgan bir paytda yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish va diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan meyoriy hujjatlar, DTS, o‘quv dasturilaridagi vazifalar malaka ishining predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari. Tadqiqotning nazariy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mirziyoevning asarlarida, Farmonlarida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, diniy vaziyatni barqarorlashtirish, yoshlr o‘rtasda ekstremistik, terroristik g‘oyalarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan haqida yoritilgan fikrlari, ulardan kelib chiquvchi ustuvor vazifalar va shuningdek respublikamiz yetakchi olimlarining ushbu masalalar yechimiga qaratilgan bir qator asar va maqolalari kabi manbalar xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Ekstremizm va terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati tahlil etildi, qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati, yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish va diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishning o’ziga xos xususiyatlari tahlil etildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot ishidan ekstremizm, terrorizm mohiyati, uning jamiyat hayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari bilan shug‘ullanuvchilar foydalanishlari mumkin. Amaliy tomoni yoshlarimizni mustaqilligimizni mustaxkamlash, vatanpavarlik, millatparvarlik va mustaqilligimizni ko‘z qarachig‘iday asrash ruxiyatni shakllantirish xamda uni mustaxkamlashdagi faoligini oshirishga ijobiy tafsir ko‘rsatish bilan bog‘likdir.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I-BOB. JAMIYATNING IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOTIDA EKSTREMIZM, TEROORIZM FENOMENINI TAHLIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mazmuni va mohiyati.

Mustabid tuzum davrida xalqimizni o‘zining ma’naviy ildizlaridan ayirish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga qaratilgan siyosat natijasida ma’naviyat va ma’rifat o‘rnini ma’lum darajada jaholat egalladi. Yurtdoshlarimiz Qur’oni karim, Hadis, tasavvuf, shariat, fiqh ilmlari haqida umumiy tushunchaga ham ega bo‘lmay qoldi.

Ana shunday sharoitda, mustaqillikka erishgan O‘zbekistonga o‘z ta’sirini o‘tkazishga intilgan yovuz kuchlar islom omilidan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga harakat qildilar. Islom dinining sof g‘oyalari niqobi ostida siyosiy hokimiyatni egallahsga intildilar. Alloh, islom kabi so‘zlar bilan nomlangan, eshitilishi jarangdor «Islom uyg‘onish partiyasi», «Hizbulloh» («Alloh partiyasi») kabi partiya va tashkilotlar tuzib, mavjud konstitusiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab islom davlati qurish, halifalikni qayta tiklashga harakat qildilar. Vaholanki, Islomda partiyalar tuzib, guruh-guruhlarga ajralib harakat qilish man etilgan. Bu haqda Qur’onning Oli Imon surasi, 103-oyatida shunday deyilgan: «Va barchangiz Allohnинг arkoni (Qur’on) ga bog‘laningiz va (firqalarga) bo‘linmangiz»¹.

Tarix xatolarni takrorlamaslikka, vaziyatga to’g‘ri baho berishga, to’g‘ri chora – tadbirlar ishlab chiqishga o‘rgatadi. Shunday ekan, tarixning zarxal sahifalarini chuqur o‘rganish qomadni tik tutgan holda buyuk kelajak darvozasining qulfiga teran nazar solishdir. Tibbiyot xodimlari har qanday kasallikni kelib chiqish tarixini chuqur tahlil qilishdan ishni boshlashadi negaki uning oldini olish chora – tadbirlarini belgilab olish oson kechishi sabab. To’g‘riliqi turli xalqlar, mamlakatlar hayotida bot – bot isbotini topgan bu hikmatni terrorizm deya atalmish ushbu jirkanch hodisani tahlil qilishga nisbatan ham qo’llash mumkin. Bu metodologik asos terroristik hatti – harakatlarning kelib chiqishidagi tarixiy vaziyatni, uning ijtimoiy – siyosiy omillarini, rivojlanish, tarqalib borishi bilan

¹ Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012. 63-b

bog‘liq targ‘ibot usul – vositalarini, harakat mexanizmlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Va shu sabab terrorizmning kelib chiqish tarixini o’rganish o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bu masalaga o’z diqqat – e’tiborini qaratgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga, ilmiy xulosalarga qaraydigan bo’lsak ularning qarashlarini turlicha yondashuvlar asosida tasniflash mumkin bo’ladi. Tadqiqotchi Sh.G‘oyibnazarovning ta’kidlashicha terrorizmga 200 ga yaqin ta’rif berilgan bo’lsada, ularning birontasi umum e’tirof etilmagan, bu boradagi tortishuvlar, babs – munozaralar xanuz davom etmoqda¹. To’g‘ri ko’pchilik terrorizm nima degan savolga o’ziga xos ravishda javob bera olsada, ular bu hodisa haqida umumiyl, mavhum tushunchaga egalar xolos. Bu o’z navbatida insoniyat hayotining murakkablashib borishi, uning yangidan – yangi faoliyat sohalarining tarkib topib yuksalib borishi, mamlakatlar, xalqlar o’rtasida o’zaro hamkorlikning kuchayib borishi bilan belgilanadi. Negaki terrorizm ham shu sohalarda ro’y bermoqda, bunday hamkorlikning, yutuqlarning mevasidan “bahramand” bo’lmoqda. Bu jarayonlarning dinamik xarakteri terrorizm atamasiga ta’rif berishni qiyinlashtirmoqda.

Bu bildirilgan fikrning isboti tariqasida terrorizmga berilgan ta’riflarga to’xtalib o’tsak: “terrorizm siyosiy maqsadda amalga oshiriladigan, asoslangan zo’ravonlikdir” (B.Kroze, Buyuk Britaniya); “Terrorizm – siyosiy, mafkuraviy yoki sotsial – revolyusion maqsadlar hamda intilishlarga erishish uchun hukumatlarni, aholi doiralarini muntazam qo’rqitib turish” (G.Deniker, Shveysariya); Terrorizm – bu “qo’rqitish, majburlash yoki cho’chitish vositasida siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo’ravonlikni ishlatish bilan tahdid solish yoki uni ishga solish” (I.Aleksandr. AQSh)². Tadqiqotchi R.Falk esa terroizmga ikki xil ta’rif berib o’tadi: “Siyosiy zo’ravonlikning, uni kim – revolyusion guruhmi yoki hukumatmi – ishga solishidan qat’i nazar, monand ravishdagi axloqiy va yuridik

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston” 2013.- 8-b

² Mirskiy G. Drakon vstayet na dibi (o mejdunarodnom terrorizme) // Mirovaya ekonomika i mejdunorodniye otnosheniY. 2002, № 3. S.37.

vaj – karsoni bo'limgan har qanday turidir”; “tanlab o'tirmasdan yoki aybsiz shaxslarga qarshi zo'ravonlikni ishga soladigan siyosiy ekstremizm”. Terrorizm doimiy ravishda terrorga asoslangan kuch ishlatishni qo'llaydigan siyosat¹.

Tushunchaga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155 – moddasida quyidagicha ta'rif berilgan: “Terrorizm — xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqtish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdon shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi”². Falsafa qomusiy lug'atida bu hodisaga shunday ta'rif keltirilgan: “Terrorizm, terrorchilik – zo'rlik va jaholat mafkurasi; terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat. Terrorizm bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan barcha mintaqqa va mamlakatlarda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab fenomendir”³. Ikkinchi bir manbada esa “Terrorizm (lotincha “terror” – qo'rquv, dahshat) – ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqtish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir”⁴. B.Tadjixanov o'z tadqiqotida terrorizmga quyidagicha ta'rif beradi: “Terrorizm – xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, suverenitet va hududiy yaxlitlikni buzish, davlatlarning xavfsizligiga raxna solish, urush va qurolli to'qnashuvlar keltirib chiqarish, ijtimoiy – siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqtish yoki qasos olish maqsadida jismoniy yoki yuridik shaxslarni biror – bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishga tiyilishga majburlash uchun qilmish

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Terrorizm>

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengoshining Axborotnomasi. 2016 y., 17 - son, 173 - modda.

³ Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.: “Sharq”, 2004.-398-b

⁴ Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalori vo atamalar lug'ati. – T.: “Akademiya”, 2007. – 274-b

ko'rinishida yoki uni amalga oshirish bilan qo'rqtish tarzida oshkora sodir etiladigan, shaxsga yoki mulkka xavf tug'diradigan harakat"¹.

Ekstremizm so'zi fransuzcha – lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, mazmuni jamiyatdagi u yoki bu hodisa, jarayonlarga nisbatan keskin fikrlarni bildirilishi va qattiq tadbirlarni qo'llanilishi yoki keskin fikr va choralarни yoqlovchi, uning amalga oshirilishiga tarafda ma'nolarini bildiradi. Bunday keskin fikrlar sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi mumkin. Jamiyat uchun nosog'lom, uning taraqqiyotiga zid bo'lgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchilarni ekstremistlar deyiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, diniy ekstremizm u yoki bu dinning aqidalarini, qonun-qoidalarini kishilar hayoti va jamiyatga joriy etish, qaror toptirishda keskin chora va tadbirlar, zo'ravonlik qo'llashga aytishimiz mumkin.

Ekstremizm – islomning qadimiyligi g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan bo'lib, muayyan mazhab ta'limotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va muayyan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishga ochiqdan-ochiq intiladi.

Diniy ekstremizm faqat Islom olamiga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga ham xos hodisadir. Masalan, o'rta asrlarda xristian ekstremist ruhoniylari muqaddas kitoblarda belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzishdir, bu eng katta gunohdir deb, bunday kishilarni dindan qaytganlikda ayblab, ularga nisbatan keskin choralar qo'llab ayovsiz jazolaganlar. Xususan 13-asrda papa qo'shirlari Fransiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashlagan. Ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizatsiya (cherkov) sudi joriy etilib Jardono Bruno o'tda kuydirildi, Galileo Galiley besh oy qamoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin baribir u «yer aylanadi» degan fikrdan qaytmadi.

¹ Tadjixanov B. Terrorizmning huquqiy tavsifi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006.- 55-b

Islom dini doirasida birinchi ekstremistik oqim – xorijiylar harakati bo‘lgan. Xorijiylar halifa Ali ibn Tolib bilan ummaviylar davlatining asoschisi Muoviya o‘rtasidagi urushni muzokara va kelishish orqali to‘xtatish siyosatiga Ali rozilik bergani uchun unga qarshi bo‘ldilar. Xorijiylardan biri Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiylar 661 yilda 4-halifa Ali ibn Abu Tolibni yarador qilib o‘ldirdi. Xorijiylar ummaviy va abbosiylar halifaligiga qarshi urush olib borib, juda ko‘p musulmonlarning o‘limiga sababchi bo‘lganlar¹.

Islomdagi eng ta’sirchan diniy ekstremistik guruhlardan biri 1928 yilda Misrda tashkil topgan «Musulmon birodarlari» (“Al-ihvon al-muslimun”) uyushmasidir. Bu uyushma diniy-siyosiy tashkilot bo‘lib, u hayr-ehson va ma’rifatchilik faoliyatidan tortib to siyosiy hayotda terror usulini qo’llashgacha bo‘lgan murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Diniy ekstremistik kuchlar 20-asrning 60-70 yillarida Misrda Jamol Abdul Nosir hukumatini ag‘darib tashlashga urindilar. 1981 yilda esa Misr prezidenti Anvar Sadatga suiqasd uyuştirib o‘ldirdilar.

1994 yilda Qandahor hududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat – «Tolibon» harkati ham diniy ekstremizmning Afg‘onistonidagi bir ko‘rinishidir. Ular Afg‘oniston hayotiga o‘rta asr diniy tartib-qoidalarini tatbiq etish, xalqni dunyo madaniyatidan uzib qo‘yish yo‘lidan bordilar. Tolibonlar hokimiyat tepasiga kelgach «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi» va undagi mezonlarga amal qilmadilar. Oddiy insoniy haq-huquqlar poymol etildi. Xotin-qizlarni erkin bilim olish va mehnat qilish huquqidан maxrum etish, ularni yana chodra va paranji ichiga tiqish yo‘lida keskin chora-tadbirlar o‘tkazdilar. Yig‘itlarni soqol o‘stirib yurishga majburladilar. Navro‘zni islomga zid deb topdilar.

Xullas, tolibonlar o‘zlari egallagan yerlarda ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan xunrezliklarni amalga oshirib jafokash Afg‘on xalqiga ko‘p kulfatlar keltirdilar. Yon qo‘srimiz Tojikistonda diniy ekstremizm 150 mingga yaqin begunoh

¹ Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 28-b.

kishilarning qurbon bo‘lishiga olib keldi. Islom diniy ekstremizmi turli mamlakatlarda barpo bo‘lajaka «islomiy tartib» o‘rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydi. Ular o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli usullardan foydalanmoqdalar. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- Zo‘ravonlik, ya’ni terroristik harakatlarni amalga oshirish orqali omma ichida qo‘rquv paydo qilish va o‘zlarining kuchlarini ko‘rsatish orqali hukumatga bosim-tazyiq o‘tkazish;
- Mamlakat iqtisodini turli yo‘llar bilan: diversiya, sanoat va qishloq xo‘jaligi manbalarini izdan chiqarish orqali uni tanazzulga uchratishga urinish bilan hokimiyatni zaiflashtirish va pirovardida osonlik bilan ag‘darib tashlash;

Diniy ekstremizmning yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlari bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi, sharoitga qarab ba’zilariga alohida urg‘u berilishi mumkin. Ularning Qur’on oyatlariga asoslanishi Islomning sof g‘oyalarini jamiyatga tatbiq etish uchun emas, balki yurtdoshlarimizning e’tiqodini chalg‘itish va islam omili orqali xokimiyatga intilishdan boshqa narsani ko‘zlamaydi. Shuning uchun islam dini va islam fundamentalizmi haqida so‘z ketganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish kerak emas.

Diniy ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko‘rinishga ega bo‘lmasisin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarni shakllash orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat.

Umuman, «Fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», «fanatizm» kabi so‘zlar tom ma’noda hokimiyat uchun kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir. Shunday ekan mazkur masala yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan. Islam fundamentalizmining xavfi haqida fikr yuritar ekanmiz, nafaqat uning islam dini ichidagi sabablariga, balki uni keltirib chiqarayotgan, rag‘batlantirayotgan jihatlariga ham doimo murojaat qilishga majburmiz. Bu sabablar hammaga yaxshi ma’lum - mustamlakachilik va yangi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va xalqaro munosabatlarda musulmonlarga qarshi

zo'ravonlik, "parchalab tashla va hukmronlik qil" qabilidagi siyosatdir. Bu jarayonning mohiyatini keng tushuntirib borish talab etiladi.

Ikkinchidan, islom dunyosini jipslashtirish uchun uning ustunligi g'oyasidan, AQSh va G'arbiy Yevropaga qarama-qarshi o'laroq, hozirgi dunyoning boshqa kuch markazlari bilan birlashish g'oyasidan foydalanishga urinislarning ham istiqboli yo'q. Bunday urinislardan o'tib borayotgan asrning 50-80-yillarida sinab ko'rilgan edi. Ularga XXI asrda o'rin qodirmaslik uchun hamkorlik masalalariga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, diniy fundamentalizmning har qanday ko'rinishlariga qarshi chiqayotgan jahondagi ta'sir doirasi keng va obro'-e'tiborli kuchlar turli madaniyatlar hamda sivilizatsiyalar yonma-yon yashashining normal, tinch va o'zaro foydali shart-sharoitlari uchun kurashda O'zbekistonning o'rni va ahamiyatini keng targ'ib qilish talab etiladi. Buni bizning fuqarolarimiz, yoshlarimiz esda tutishlari va qadrlashlari lozim. Mamlakatimiz ichida ham, jahon hamjamiyati oldida ham o'z mas'uliyatlarini tushunishlari va unutmasliklari zarur.

1.2. O'zbekistonda yoshlar o'rtasida diniy-ekstremistik g'oyalar tarqalishining oldini olish, diniy vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan siyosatning mohiyati.

Jamiyat hayotida diniy tashkilotlar faoliyati, vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, milliy va diniy bag'rikenglikning qaror toptirishda ushbu omillar hal etuvchi jihat hisoblanadi. Hamma uchun vijdon erkinligining kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi asosiy qonunimizning 31-moddasila belgilab qo'yilgan¹.

Vijdon erkinligi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagilarni bildiradi: har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy meyorlarni buzmagan holda vijdoni buyurganicha yashash, ishslash

¹ O'zbekiston respublikasining konstitusiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2013. 9-b

imkoniyati. “Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitusiyaviy huquqidir.

Fuqaro o‘zining dinga, dinga e’tiqod qilishga yoki e’tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi”¹.

Bunda dinga munosabatning o‘ziga xos jihatni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan esa unga demokratiya ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi.¹ Ko‘rinadiki vijdon erkinligi zamirida shaxsning huquqi, demokratiya,adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ahloqiy tushunchalar yotadi. Hozirgi vaqtida vijdon erkinligi demokratianing ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Biz bu o‘rinda vijdon erkinligini fuqarolarning din erkinligi nuqtai nazaridan izohlashni maqsad qilib qo‘yganmiz. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi barcha davlatlarning ijtimoiy hayotida muhim va shu bilan birga murakkab masalalaridan biri bo‘lib kelgan.

Bu masalada xalqaro meyorlarga kelsak, BMTning Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, dunyoviy davlatlarning Konstitusiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o‘z ifodasini topgan. 1948 yil 10 dekabarda qabul qilingan «Inson huquqlari umumiy jahon deklaratsiyasi»ga muvofiq har bir inson erkin fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini va e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini, diniy ibodatlarni bajarishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar bilan birgalikda qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6сон, 99-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 52-сон, 513-modda

¹ Qarang. Islom: ensiklopediY. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2004., 63-bet.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» ning 18-moddasida esa «Din yoki e’tiqodga sig‘inish erki qonunda belgilab qo‘yilgan va jamoat havfsizligini saqlash, tartib, sixat-salomatlik va ahloq-odobni saqlash uchun, ayni vaqtda boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkinliklarini saqlash uchun zarur bo‘lgan cheklashlarga gagina nozil bo‘ladi», - deb ta’kidlangan.

Din va vijdon erkinligi to‘g‘risida xalqaro hujjatlardagi yana bir muhim masala, turli dunyoqarash va e’tiqodda bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi, davlat, din, diniy tashkilotlar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta’minlanishini ham nazarda tutadi.

Din erkinligi nuqtai nazaridan vijdon erkinligi - bu fuqarolarning u yoki budinga e’tiqod qilish yohud hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida qayd etilganidek, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi».² Dindor bo‘lish yoki bo‘lmaslik, o‘zi xohlagan dinga ishonish yoki hech qaysi dinga ishonmaslik har kimning shaxsiy ishi. Bu huquq O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 31-moddasida qonun bilan mustahkamlangan.

Vijdon erkinligining kafolatlari ko‘p qirralidir. Bu – avvalo dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi; barcha fuqarolar uchun ularning dinga e’tiqod qilish yoki qilmasligidan qat’iy nazar maorif va madaniyat maskanlari eshiklarining ochiqligi; maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi; dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning yaratib berilganligi va boshqalardan iborat.

O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘ratacidagi munosabatning asosiy tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasining din va diniy tashkilotlar bilan munosabati, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi tegishli moddalarida aks etgan Vijdon erkinligi, shuningdek «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, «O‘zbekiston»; 2003. 8-bet.

to‘g‘risida» qonun xalqaro hujjatlardagi talablarga mos tuzilganligi bilan ajralib turadi.

Birinchi prezident I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanar ekan, din bilan munosabatini quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilayotganini ta’kidlagan edi:

1. Dinning davlatdan, davlatning diniy tashkilotlardan ajratilganligi. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ‘ibotiga oid faoliyatini mablag‘ bilan ta’minlamaydi.

2. Dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish, diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.

3. Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

4. Ma’naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot yo‘llarini izlash zarurati.

5. Dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, dinga va diniy tashkilotlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlarning mohiyatini va ahamiyatini teran anglab yetmoq uchun sobiq Sho‘ro davrida dinga va diniy qadriyatlarga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatni bilish bizni o‘ylash va fikr yuritishga, mustaqillikning qadrini anglashga yo‘llaydi. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston fuqarolari uchun tom ma’nodagi vijdon erkinligi ta’minlandi.

Milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va tiklanmoqda. Jumladan Ramazon va Qurbon xayitlari 1990 yildan boshlab har yili ommaviy ravishda,

emin-erkin bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda. Diniy-ma'rifiy sohada Imom Buxoriy, Imom Motrudiy, Imom at-Termiziyy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa ulug' mutafakkirlarimizning yubileyлari o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli respublikamiz fuqarolari Haj safariga borish, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldilar. O'tgan yillar davomida xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan noyob manbalarni tizimli o'rganish yo'lga qo'yildi. Mustaqillik yillari dinning jamiyatdagi mavqeи tiklandi, barcha diniy uyushmalarga, mazhab va jamoalarga qonun doirasida ochiq va dahlsiz faoliyat imkoniyati yaratildi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillari amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda hali o'z yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. 1999 yidagi fevral voqealari, 2004 yildagi 29-30 mart kunlari sodir etilgan qo'poruvchilik hattiharakatlari ta'lif-tarbiya sohasidagi ishimizda nuqsonlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ularni bartaraf etish uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz talab etiladi. Bu yo'lda bir-biri bilan o'zviy bog'liq muammolarni yechishga alohida e'tibor berishda:

- sog'gom fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo'lida safarbar qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish.
 - dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlashdan iboratdir.

Mavjud muammolarni hal etish ta'lif-tarbiya tizimi oldiga qator vazifalardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish. Afg'onistonda bir necha o'n yillardan beri davom etib kelayogan

fugorolar urushi, Suriya voqealari, Shimoliy Afrika vrqealari, Yevropani bosib ketgan qochoqlar misolida bu voqealarni yoshlarga tushuntirish lozim.

Ikkinchidan, islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko‘plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash buyicha konveyer tashkil etayotgan, halifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash borasidagi ma’rifiy ishlarni kuchaytirish;

Uchinchidan, turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta’sirchanligini oshirish;

To‘rtinchidan, missionerlik harakatining oldini olish, yoshlarni chet el OAV orqali tarqatilayotgan turli habarlar ta’siriga berilib ketishini oldini olish bo‘yicha tadbirlar uyushtirish va boshqalar.

**II-BOB. DINIY-EKSTREMISTIK G‘OYALAR GLOBALLASHUVI
ShAROITIDA DINIY VAZIYATNI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI
DOLZARB VAZIFALARI.**

2.1. Diniy – ekstremistik g‘oyalarning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.

XX asrning 90 yillariga kelib “ikki qutbli mafkura” o‘rtasidagi kurashga barham berildi. Ammo, dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar to‘xtab qolgani yo‘k. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar turli yo‘llar bilan amalga oshirilmoqda. Bunday mafkuraviy ta’sirlardan mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo hududi ham chetda qolgani yo‘q. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g‘oyasiga zid bo‘lgan yot va begona g‘oyalari kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallahsga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi quyishga urinishlar bo‘lganligi hammamizga ayon. Ular o‘zlarini “do‘s”, “vatandosh”, “dindosh” etib ko‘rsatish niqobi bilan o‘z g‘oyalari amalga oshirishga urindilar.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlanganidek “... hozirgi vaqtida dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo‘lsada, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallah, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilish”¹ dir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar, ya’ni insonlarning qalbi va ongini egallah uchun uzluksiz davom etayotgan kurash ko‘p narsalarni hal qiladi. Jahondagi ma’lum siyosiy kuchlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo‘lgan bu mintaqani o‘z manfaatlari doirasiga tortish harakatlaridan to‘xtaganlari yo‘k. Ular o‘z maqsadlariga erishish

¹ Karimov I. A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2002. 86-b

uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllaridan foydalanishga urinmoqdalar. Shulardan biri Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma'naviyatida islom dinining mustahkam o'rinnegalaganligidan foydalanib, ularga islomiy «saboq» berish, islomni qayta tiklash bayrog'i ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borayotgan qo'poruvchilik harakatlaridir.

Ma'lumki «fundamentalizm», «yekstremizm», «terrorizm» kabi hozirda tez-tez takrorlanayotgan tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qoidalarga mos kelmaydigan g'oyani va shu g'oya asosidagi harakatlarni ifodalaydi. «Fundamentalizm» va «yekstremizm» g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad-diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy asosdagi va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlar ostida esa tarix sahifasida qolib ketgan halifalikni tiklash g'oyasiga zo'r berilmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan mamlakatimiz taraqqiyotiga havf tug'dirayotganligini Prezidentimiz teran anglab, bu qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan o'zlarining 1997 yilda yozgan "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarlarida ogoh qilgan edilar.

XX asrning 90 yillariga kelib diniy ekstremistik ruhdagi oqimlar ko'payib, harakatlari sezilarli darajada jonlanib taraqqiyotga tahdidlari kuchaydi. Bunday oqimlarni Markaziy Osiyo hududiga, xususan O'zbekistonga kirib kelishini 5 bosqichga bo'lib o'rganish mumkin:

1-bosqich. 1970-1985 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda sobiq SSSRda ateistik siyosat yurgizilgan. Bu siyosat oqibatida machitlarning soni kamayib 119 taga tushib qolgan edi. Diniy o'quv yurtlari (madrasa)dan faqat Buxorodagi Mir Arab madrasasi va Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutigina cheklangan holda faoliyat ko'rsatar edi. Nafaqat kommunistlar, hatto oddiy fuqarolar ham yaqin kishilar vafot etganda janoza (dafn marosimi)da

qatnashishga ham yurak oldirib qo‘ygan edilar. Islom dini va boshqa dinlarning ta’limotini o‘rganishga ruhsat berilmas edi. Shunday bo‘lishiga qaramay kishilarimiz qalbida dinga ishonch va e’tiqod yashirin bo‘lsada saqlanib kelardi¹.

Islomni saqlashga harakat qilingan. Yashirin bo‘lsada hujralarda islomni o‘qitishgan. Bu davrda diniy sohani jonlantirish harakati yashirin va ochiq suratda borgan.

2-bosqich. 1985-1989 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda sobiq SSSRda qayta qurish, oshkoraliq, ichkilikka qarshi kurash olib borildi. Demokratiya va dinga biroz erkinlik berildi. Bu davrda yurtimizga chetdan ko‘plab diniy adabiyotlar kirib keldi, missionerlik (dinni targ‘ib qilish) jonlandi. Yurtimizga kirib kelgan diniy adabiyotlarning ko‘plari mazmunan asrlar davomida yurtimizda qaror topgan hanafiylik (Imom A’zam) mazhabiga zid bo‘lgan g‘oyalar bilan sug‘orilgan edi. O‘sha yillari respublikamiz Oliy o‘quv yurtlarida ko‘plab chet ellik, jumladan islom dunyosidan kelgan talabalar ham ta’lim olar edi. Bu talabalar asosan boshqa mazhab ruhida tarbiya topgandilar. Chet ellik talabalar bilan muloqotda bo‘lgan bizning talabalarimiz o‘rtasida diniy mavzuda suhbatlar bo‘lar, kitoblar o‘qiladi. Bunday suhbat va kitoblar mazmuni ham bizning mazhabimizga zid edi. Natijada chet ellik talabalar ta’siriga tushgan yoshlarimizda bizning mazhabimiz (hanafiya, Imom A’zam yo‘li) noto‘g‘ri, hato ekan degan tushunchalar paydo bo‘lgandi².

Aqidaviy ta’limotda bizning yurtimiz musulmonlari azaldan Imom al-Motrudiya yo‘lidan borib, unga amal qilib kelganlar. Imom al-Ash’ariy Iroqda o‘zining Ash’ariya aqidaviy ta’limotini yaratgan. Chet ellik talabalar ta’sirida bo‘lgan bizning ba’zi talabalarimiz ham ana shu aqidaviy ta’limot ta’siriga tushib qolgan edilar. Bu ta’limotda musulmon kishi musulmon bo‘lmagan davlatda yashashi mumkin emas degan g‘oya mavjud. Bu g‘oya qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi hammamizga ayon.

¹ Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 2019. 67-b

² Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 2019. 67-b

3-bosqich. 1989-1993 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda mustaqillik sharofati bilan dinga berilgan erkinlik tufayli islomiy harakatlar kuchayish davri bo‘ldi. Chetdan ko‘plab din mutaxassislari, da’vatchilar islom nimaligini o‘rgatish uchun yurtimizga kirib keldi. Vaholanki, bizning xalqimiz diniy va dunyoviy ilmlar borasida: Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshband, Muso Xorazmiy, Axmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi dunyo tanigan fozillarni tarbiyalab etishtirgan. Islomni o‘rgatmoqchi bo‘lganlar aslida islom nimaligini bizdan o‘rganishlari joizdir.

Shu yillarda “Islom uyg‘onish partiyasi”, “Adolat”, “Islom lashkarlari” kabi partiya va harakatlar tashkil etildi. Ular huquq-tartibot organlari va ularning rahbarlariga, hukumat idoralari xodimlariga nisbatan taz’iq o‘tkazish bilan shug‘llandilar, begunoh odamlarni masjidlar oldida gi ustunlarga bog‘lab qo‘yishdek bedodliklar qilib, ochiqdan-ochiq Islom davlati tuzish talablarini qo‘ydilar. Bunday partiya va harakatlarning faoliyati 1993 yilga kelib tugatildi¹.

4-bosqich. 1993-1999 yillarni o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda diniy partiya va harakatlar tugatilganidan so‘ng ularning vakillari yashirin harakatga o‘tishdi. Yashirin ravishda aholini islomlashtirish yo‘lini tutdilar. Bunda ular ko‘proq ayollar xujralarini tashkil etib, ularga din bilan birga, din yo‘lida o‘zini o‘zi qurbon (shahid) qilishga tayyorladilar. Yoshlar ongiga sen millat va dinning sharafigan, bu yo‘lda shahid bo‘lish eng katta savobdir degan g‘oyani sigdirishga harakat qildilar. Bu davrda ular ayollarni oiladagi mavqeiga ahamiyat berib, din yo‘lida o‘zini qurbon qilish ruhida tarbiyaladilar va ularni maktabdan bezdirdilar.

5-bosqich. 1999 yil 16 fevral voqealaridan hozirgi kunimizgacha bo‘lgan davr. Bu davrda diniy ekstremistik kuchlar mamlakatimiz rahbari va hukumat a’zolariga nisbatan suiqasd uyushtirishlari natijasida 16 begunoh kishining

¹ Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 2019. 68-b

hayotiga zavol bo‘ldilar, ularning oilalarini g‘am-g‘ussaga botirdilar. 2000 va 2001 yillarda qurollangan diniy ekstremistik jangari kuchlar qo‘sni mamlakatlar teritoriyasidan Angren, Bo‘stonliq, Vokent, Sariosiyo tumanlariga yashirin ravishda kirib kelib ko‘plab vatanparvar yoshlarimizni erta hayotdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘ldilar. 2004 yil 29-30 mart va 1 aprel kunlari qabih niyatli kuchlar domiga ilingan 8 ta ayol Toshkent va Buxoroda o‘zini-o‘zi portlatib xalq orasida vahima va jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarishga harakat qildilar¹.

Diniy ekstremistik harakatlarning asl maqsadi Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlarni yo‘q qilish, mintaqada beqarorlik vaziyatni vujudga keltirish va oxir oqibatda islomiy davlatni qaror toptirish, halifalikni tiklashdan iborat.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizm na faqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki butun dunyo xalqlari tinchligi va barqarorligiga tahdid soluvchi harakat ekanligini xalqaro hamjamiyat tushunib etmoqda. Dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda bunday salbiy harakatlarni oldini olish va tugatish uchun astoydil kirishmoqdalar.

2.2. ISHID fitnasi vauning insoniyat boshiga solayotgan kulfatlari.

Iraq va Shom Islom davlati - Ishid- (ruscha - Islamskoye gosudarstva Iraka i Levanta, arabcha (الدولة الإسلامية في العراق والشام), sokrashyonno **IGIL** ili **DÁISh**). Bu davlatning tashkil etilishini G‘arbnинг musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o‘ziga xos aksi deyish mumkin. IShID 2006 yilda Iraq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Bosh maqsad sifatida Iraq, Iordaniya, Suriya kabi davlatlar negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati – “halifalik” ni barpo etib, uni bosqichma-bosqich Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirishni da’vo qiladi. Misrdagi nufuzli “Dorul ifto”, ya’ni “Fatvo hay’ati” o‘zlarini “Islom davlati” deb atagan Iraq va Suriyadagi

¹ Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 2019. 69-b

jangarilarni bu nom bilan atamaslikka chaqirdi. Qator taniqli ulamolar bu guruhning qator qilmishlarini, ular amalga oshirgan xunrezliklarni Islomning barcha tamoyil va qoidalariiga zid ekanini aytib, uning faoliyatini islom dini uchun katta tahdid deb atamoqda. Saudiya Arabistonibosh muftiysi Shayx Abdul Oli Shayx: “Iraq va Suriyadagi “islom davlati” nomini niqob qilgan buzg‘unchilar islom dinining dushmanidir. Chunki ularda ko‘p insonlar jabr chekishmoqda” deb ta’kidladi. Tashkilot tadbirkorlarga “soliq” solish, garovga olish, tovon puli, mol-mulkarni talon-taroj qilish, neft sotish evaziga o‘z faoliyatini moliyalashtiradi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag‘dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashgan¹.

ISHID ning vujudga kelish tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, u 1999 yilda “Jamaot at-Tavhid val-Jihad” nomi bilan paydo bo‘ldi. Unga asli iordaniyalik bo‘lgan Axmad Fadil Xalil (Abu Musab az-Zarkaviy) asos solgan. 2006 yildan “Iraq islom davlati” nomini oladi. Keyinchalik (2013) Iraq va Shom (Levant) davlati deb atala boshlandi. 2014 yil 29 iyunda o‘zlarini Halifat deb e’lon qilishadi². Rossiyaning qator diniy ulamolari bu uyushmani “islom davlati” deb atamaslikka chaqirishmoqda. Ularning fikricha bu davlatni “Iblis davlati” yoki arabcha DAISH deb atashni taklif qilishmoqda. Chunki daish deb atalganida arab tilida haqoratli so‘zga juda yaqin keladi (داعش «dais»). Saudiya Arabistonibosh muftiysi Shayx Abdul Oli Shayx: “Iraq va Suriyadagi “islom davlati” nomini niqob qilgan buzg‘unchilarni Iraq va Shomdagisi islam dushmani deb atagan edi³. 2014 yilgi ma’lumotlarga qaraganda ishidchilar nazoratida bo‘lgan hudud 90 ming kv km ni tashkil qilib, ahaolisi 8 million kishi atrofida bo‘lgan. 2015 yil 11 dekabrda Rossiya mudofaa ministri S.Shoyguning bnogani axborotiga asosan ishidchilar Suriyaning 70 % hududini egallashgan.

Ishidchilarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq sabablar va omillarga xususida gap ketganida Moskva VSHE demografiya instituti direktori Anatoliy

¹ Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 2019. 107-b

² https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstvo

³Tulepov A.M. ISHID fitnasi. T.: “Movarounnahr” 2015. 11-12 bet

Vishnevskiyning fikricha Yaqin Sharq aholisning keskin o'sishi natijasida yuzaga kelgan ishsizlik, qashshoqlik radikal guruhlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Andrey Bistritskiyning hisoblashicha mintaqadagi ijtimoiyadolatsizliklar sabab aholi o'zining ijtimoiy adolat, demokratik tartibot bilan bog'liq orzu umidlarini "Islom davlati" misolida amalga oshishiga ishonishardi. Buyuk Britaniya sobiq tashqi ishlar mnistri Devid Milibendning qayd etishicha AQSh boshchiligidagi harbiy koalitsyaning Iroqqa bositirib kirishi (2003) natijasida vujudga kelgan beqarorlik ishidchi harbiy guruhlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Xuddi shunday fikrni Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Toni Bler "SNN" telekanaliga bergen intervyusida qayd etib 2003 yilda AQSh boshchiligidagi koalitsion kuchlarning Iroqqa bostirib kirib rasmiy hukumatni ag'darib tashlashlari natijasida vujudga kelgan beqarorlik, anarxizm, ijtimoiyadolatsizlar ishidchilarning maydonga chiqishining bosh sababi ekanini aytib o'tadi¹. Ishidchilarning yuzaga kelishini har tomonlama tahlil qilgan britan analitiki Patrik Kokbern esa asosiy sabablarni bir nechtaga bo'lib tahlil qiladi: G'arbning yetakchi davlatlari olib borayotgan siyosatning natijasi ekani; mintaqadagi AQSh ning asosiy sherigi Saudiya Arabistonini tomonidan salafiylarning moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi; Iroq va Suriyaga maxsus tayyorgarlikdan o'tgan jihodchilarning kirib kelishi uchun maxsus "yo'lak" (koridor) ning mavjudligi; Iroqda koalitsion kuchlar tomonidan shialar rejimining joriy etilishi va shu kabilar. Harbiy harakatlar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak AQSh 1991 yilgacha biron marta musulmon dunyosi bilan qarama-qarshilikka bormagan. 1991 yil yanvarda AQSh qo'shinlari ilk bor Iroqqa bostirib kiradi va vaziyat teskari tomon o'zgarib boradi. Ayniqsa 2001 yilda boshlangan "terrorga qarshi urush" kampaniyasi uning musulmon olamidagi obro'siga putur yetkazdi. G'arb demokratiyasi asosida "isloh" qilingan Iroq va Liviyyadagi vaziyat naqadar achinarli manzara kashf qilganiga butun insoniyat guvoh.

2014 yilning fevraliga kelib "Al-Qoida" va daishchilar o'rtasidagi aloqalar butunlay uzildi. Bir paytlar "Al-Qoida" ning bir qismi bo'lib kelgan daishchilar

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstvo

endi unga qarshi chiqa boshlashdi. Bu esa Suriyadagi fuqarolar urushining avjiga chiqishiga sabab bo'ldi. 2014 yilning yozidan daishchilar Iroqning shimoliy – g'arbiy mintaqalarida, Suriyaning shimolida keng miqyosdagi harbiy harakatlarni avj oldirib yuborishadi. Shu paytdan ishidchilar xalqaro ommaviy axborot vositalarida nihoyatda keng e'tibor beriladigan mavzuga aylanishdi.

Bugungi kunda daishchilar Suriyadagi (Xaleppo, Idlib, Rakka, Xama), Iroqdagi (Kirkuk, Tikrit, Diyala, Naynava), Liviyadagi (Barka, Fezzan, tarabulus), Arab yarim orolidagi (Xijoz, Laxaj, Sana, Shabva), Nigeriyadagi (Ifrikiya), Jazoirdagi, Afg'oniston va Pokistondagi qator provinsiyalarni o'z qo'lida ushlab turishibdi.

Daishchilarning moliyaviy daromad manbalari turlicha. Birinchi galda ko'pgina qarashlarda asosiy daromad manbai sifatida qora bozordagi neft savdosi ko'rsatiladi. To'g'ri daishchilar bugungi kunda neft savdosidan juda katta daromad qilishlari mumkin. Lekin ular neft konlarini qo'lga kiritgunicha qayyoqdan daromad qilishgan degan muasala paydo bo'ladi. G'arb mamlakatlarining ba'zi ommaviy axbrot vositalarida keltirilishcha daishchilarga Saudiya Arabistoni, Qatar davlatlari homiylik qilishgan. Lekin bu ularning asosiy raqibi Iraq va Suriya rasmiy hukumat hisoblanadi. Daishchilar tomonidan egallangan shaharlardagi qator banklar o'z mablag'lari bilan o'lja bo'lib qoldi. Aholini garovga olish, shuningdek inson organlari savdosi avj olganligi ko'p bor o'z isbotini topgan. Nazoratdagি hudularga e'tiqodidan qat'iy nazar yuqori malakali kadrlar (injenerlar, vrachlar, dasturchilar) katta mablag' evaziga keltirilmoqda. Masalan moliya vaziri Avstraliya fuqarosi hisoblanadi. Faqat ularga o'z dinining cherkovlarini qurmaslik, diniy bayramlarini namoyishkorona nishonlamaslik, diniy liboslarda yurmaslik kabi shartlar qo'yilgan.

DAISh guruhi o'z oldiga buyuk halifalikni tiklash vazifasini qo'ygan. Uning tarkibiga arab halifaligi, Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan barcha hududlar kiritilishi belgilab qo'yilgan. Usmoniylar imperiyasi tugatilishi natijasida belgilangan chegaralarni tugatish, Iraq, Suriya, Livan, Isroil, Falastin, Misr, Jordaniya, Turkiya birinchi galda halifalikka kiritilishi lozim edi. Shuningdek

daishchilar XAMAS ni tugatish, Isroilni yo‘q qilish, Markaziy Osiyodagi vaziyatni destabilizatsiya qilishga intilib keladi.

Keyingi yillarda daishchilarning mintaqada vaziyatga, uning barqarorligiga yetkazayotgan zararining cheki yo‘q: teraktlar, jangavor harakatlari, portlashlar, qotilliklar, millionlagan qochoqlar, vandalizm va shu hokozolar. Daishchilar tomonidan insoniyatga qarshi qaratilgan hatti-harakatlarning ba’zilarini keltirishga harakat qilamiz:

- 2012 yilning 23 iyulida Iroqning qator hudadlarida olib borilgan harbiy harakatlari natijasida 116 kishi o‘ldirildi, 299 ta odam yaralandi.
- 2014 yil 16 iyunida daishchilar Iroqning shimolidagi Tikrit shahrini egallab, undagi harbiy bilim yurtining 1700 nafar talabasini qatl etishdi.
- 2014 yilning 28 avgustida daishchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqda mudhish videosharh tarqaldi. Unda asirga olingan 250 nafar suriyalik askarning namoyishkorona qatl etilishi tasvirlangan edi¹.
- 2015 yilning 20 yanvarida Mo‘sul shahrida 13 o’smir Osiyo kubogida ishtirok etayotgan Iroq-Iordaniya futbol o‘yinini tomosha qilishgani uchun otib o‘ldirildi.
- 2015 yilning 31 oktabrida Sharm el-Sheyx – Sankt-Piterburg marshruti bo‘yicha uchayotgan A-321 samolyoti havoda portlatib yuborildi.
- 2015 yil 13 noyabrda Parij shahrida qator teraktlar amalga oshirildi. Bataklan teatri garovga olindi. Teraktlar natijasida 130 kishi xalok bo‘ldi. 8 ta xudkush o‘z-o‘zini portlatib yubordi.
- 2016 yilning 22 martida Bryussel shahrida amalga oshirilgan teraktlar seriyasi natijasida 34 kishi hayotdan ko‘z yumdi.
- 2016 yilning 12 mayda Bag‘dod shahrida amalga oshirilgan teraktlar seriyasi natijasida 80 dan ortiq kishi hayotdan ko‘z yumdi².

Albatta bunday faktlarni istagancha keltirish, davom ettirish mumkin.

¹ Tulepov A.M. ISHID fitnasi. T.: “Movarounnahr” 2015. 49- bet

² https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstvo

Voqealar rivojining tahlillari natijasida quyidagilar xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, daishchilar o‘z oldlariga qo‘ygan maqsadlariga erishishda, o‘z saflarini yanada to‘ldirishda global ijtimoiy tarmoqdan nihoyatda unumli foydalanishmoqda. Nihoyatda ustamonlik ila tayyorlangan harakat saflariga chorlovchi videolavhalarni doimiy ravishda joylashtirib borishadi.

Ikkinchidan, targ‘ibot ishlariga katta malaka va tajribaga ega bo‘lgan yevropalik psixolog mutaxassislar jalb etilgan. Har bir videolavha mantiqiy izchillik asosida boyitib boriladi. Shu bois internet o‘ziga xos “o‘rgimchak to‘ri” bo‘lib xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, internet insoniyat hayotida tutgan o‘rni beqiyos. Uning o‘rnini bosa oladigan biron-bir boshqa aloqa vositasi mavjud emas. Uning xizmatidan barcha tashkilotlar, uyushmalar, har bir inson har kuni keng foydalanib keladi. Uni man etish, yoki undan voz kechish umuman mantiqsiz holat hisoblanadi. Faqatgini yoshlаримизда internetdan foydalanish madaniyati, salohiyatini yuksaltirib borish talab etiladi.

2.3. O‘zbekistonda diniy-ekstremistik g‘oyalalar tarqalishining oldini olishda mafkuraviy profilaktika oldidagi vazifalar.

Din istiqboliga doir futurologik masalalar dunyoviy jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalarning rivojlanib borishi bilan shakllangan sekulyarlashuv konsepsiyalarda o‘z aksini topib kelamoqda. Ushbu yo‘nalishdagi barcha qarashlar uchun asosan taraqqiy etgan mamlakatlarda dinning jamiyat hayoti sohalariga ta’sirining tobora pasayib, dunyoviylikka asoslangan hayot tarzining mustahkamlanib borishi haqidagi g‘oya umumiy hisoblanadi. Sekulyarlashuvga bag‘ishlangan nazariyalarda dinlarning taqdiri bilan bog‘liq masalalar yuzasidan tahliliy mulohazalarga e’tibor beradigan bo‘lsak tabiiy ravishda, insoniyat istiqbolida diniylikdan dunyoviylik o‘tib, rivojlanib boruvchi jamiyat qurilishi modeli ustuvor bo‘lishi to‘g‘risidagi xulosa ilgari suriladi.

Globallashuv sharoitida mazkur muammo ijtimoiy-falsafiy fanlarning asosiy mavzularidan biriga aylandi. Har bir fan doirasida dinning ijtimoiy-tarixiy mohiyati, istiqboli bilan bog‘liq masalalar o‘ziga xos yondashuv asosida tadqiq etiladi. Izlanishlar din futurologiyasiga doir ilgari surilayotgan qarashlar asosan bir nechta muhim masalalar doirasida ishlab chiqilayotganini ko‘rsatmoqda.

Ulardan biri – din o‘zining avvalgi ijtimoiy maqomini yo‘qotib, jamiyatga bo‘lgan ta’sir kuchi pasayib borishi bilan bog‘liq masala hisoblanadi. Mutaxassislar tahlillar asosida jamiyatdagi sekulyar jarayonlarning natijasi dinga ta’siri kuchli bo‘lgan ikki soha – fan va siyosatning rivojlanishiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Lekin bu degani dinnii jamiyatdan ajratib yuborish deb hisoblamaslik zarur. Ushbu omilni ro‘kach qilib ekstremistik g‘oyalarni ilgari surayotganlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Ma’lumki, hozirda sekulyarlashuvning kuchayib borayotgani va uning zamonaviy jamiyatning xarakterli xususiyatiga aylanib ulgurgani, din, an’anaviy ravishda uzoq ming yilliklar mobaynida bajarib kelgan funksiyalarni endilikda to‘liq bajara olmasligi haqidagi fikrlar keng tarqalgan. Darhaqiqat, voqelik diniy mansublik bilan boshqa ijtimoiy rollar o‘rtasida muayyan tafovut mavjudligini ko‘rsatmoqda. Birgina, dinidan qat’i nazar barcha fuqarolarning teng huquqliligi to‘g‘risidagi dunyoviy jamiyat qoidasi bunga misol bo‘la oladi¹. XVIII—XIX asrlarda huquqiy darajada namoyon bo‘lgan ushbu sekulyar tamoyil keyinchalik ijtimoiy darajalarga ham tatbiq etildi.

Biroq, bunday holat ulkan ma’naviy kuch – dinning inson, ijtimoiy guruh, jamiyat hayotida barcha joylarda ham sust rol o‘ynayotgani haqidagi xulosaga asos bo‘la olmaydi, albatta.

Bir guruh olimlar sekulyarlashuvning dinni jamiyatga ta’sir kuchini tobora susaytirib, yo‘q bo‘lishigacha olib boradigan ortga qaytmas jarayon tarzida talqin etadilar. Ikkinci guruhga mansub mutaxassislar fikricha esa, sekulyarlashuv – bu, faqat dinning shaklan o‘zgarishini ifodalaydigan jarayon bo‘lib, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan diniy e’tiqod shakllari o‘rniga yangilarining paydo bo‘lishi va shu tariqa

¹ Jumaniyozov X. Sobirova M. Nigmanova U. Globallashuv asoslari. 155-b

dinning jamiyatdagi ahamiyatining saqlanib qolishini anglatadigan jarayon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ikkinchi guruh olimlari sekulyarlashuvni yangilangan shakllarda dinlarning jamiyatdagi o‘rnini hatto, kengayishiga olib keladigan tabiiy, sog‘lom jarayon sifatida tushunadilar.

Sekulyarlashuv nazariyalarining yana bir yo‘nalishi kelajakda dinning fan, ratsional tafakkur, dunyoviy ahloq meyorlari tomonidan jamiyat hayotidan siqib chiqarilishi haqidagi futurologik qarashlar tizimini ifoda etadi¹. Mutaxassislar ushbu nuqtai nazarni hozirda din istiqbollari bilan bog‘liq masalalar tahlilida ustuvor bo‘lib turganini e’tirof etadilar. Unga ko‘ra, fan va jamiyatning savodi o‘sib borgani sari dinning roli tobora pasayib boradi.

Yana bir ilmiy oqim sekulyarlashuvni dinning evolyusiyasi va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida boshqa shakl va ko‘rinish kasb etib borishi bilan bog‘liq futurologik g‘oyalarni ilgari suradi.

Ma’lumki, zamonaviy dinshunoslik fani talqinlariga ko‘ra, sekulyarlashuv tufayli din o‘zgarib boradi, biroq, u o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, insonlar hayotida boshqacha tarzda namoyon bo‘ladi. Jamiyat differensiatsiya yo‘li orqali taraqqiy etadi va din o‘zining avvalgi “muqaddas timsol” sifatidagi ahamiyatini yo‘qotib, ijtimoiy hayotning sohalaridan biriga aylanadi. Diniy e’tiqod tobora xususiy xarakter kasb etadi. Shuning uchun, kelajakda sotsial institut sifatida dinning davlat, huquq, iqtisodiyot, ta’lim kabi sohalarga nisbatan ta’sir kuchi tobora susayib boradi.

Umuman olganda, Kontdan so‘ng ko‘plab jamiyatshunos olimlar fan-texnika taraqqiyoti natijasida dinning zaiflashib borishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarini ilgari surdilar.

Ayni paytda, dinning davlat ishlaridan ajratilishi va vijdon erkinligi tamoyilining joriy etilishi dinning jamiyat hayotida tutgan o‘rnining zaiflashuvi emas, balki takomillashuvi, insoniyat ma’naviy madaniyatining yuksalib borayotganini anglatishini ham alohida ta’kidlash joiz.

¹ Jumaniyozov X. Sobirova M. Nigmanova U. Globallashuv asoslari. 156-b

O‘tgan asrning oxirida dunyoga mashhur bo‘lgan yana bir futurologik qarash amerikalik olim S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” konsepsiyasidir. Umuman olganda, so‘nggi yillarda, G‘arbda diniy, madaniy, sivilizatsiyaviy tafovutlar xalqlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning manbai ekani to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar, qarashlar rivojlanib borganini ta’kidlash joiz. Ushbu konsepsiya ham shular jumlasidandir.

Ma’lumki, amerikalik olim insoniyat istiqbolida asosiy ziddiyat va qaramaqarshiliklar sivilizatsiyalarning kesishuv chizig‘ida sodir bo‘lishini bashorat qiladi va diniy, madaniy farq va xilma-xillik bunda ustuvor omil ekanini ta’kidlaydi.

Xulosa sifatida quyidagilarni aytib o‘tish mumkin:

Birinchidan, xalqlar o‘rtasidagi diniy, milliy, maishiy va boshqa farqlar o‘z-o‘zicha qonli urush, ziddiyatlarga sabab qilib ko‘rsatib bo‘lmaydi. Balki, siyosiy kuchlar tomonidan ularning mazmunining bo‘rttirilishi, bir yoqlama talqin qilinishi natijasida, soxta, ratsional asoslardan uzilgan vayronkor g‘oya va mafkuralar yaratiladi va ommaga turli yo‘llar bilan singdiriladi.

Ikkinchidan, diniy tafovutlar obyektiv xarakterga ega, biroq, urush va ziddiyatlar zamirida subyektiv omillarning ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday jihatlarga qarshi kurashda mafkuraviy profilaktika rolini yanada oshirishga e’tiborni kuchaytirish.

Uchinchidan din sekulyarlashuvi umuminsoniy hodisa bo‘lsa-da, makon nuqtai nazaridan xususiy holat kasb etishini ham unutmaslik zarur. Zero, din Sharq jamiyatları, xususan, xalqımız ma’naviy hayotining ajralmas qismi sifatida doimo rivojlanib kelmoqda. Biroq, mustaqillik tufayli din ijtimoiy-tarixiy maqomi siyosiy-huquqiy asoslarda qayta tiklandi. Yurtimizda nafaqat, islom dini, balki boshqa konfessiyalar faoliyati uchun ham birdek shart-sharoitlarning yaratilgani fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunga kelib, din avvallari bo‘lgani kabi insoniyat hayotida muhim o‘rin tutadi.

III -BOB. YOSHLAR O'RTASIDA DINIY-EKSTREMISTIK G'OYALAR TARQALISHINING OLDINI OLISH VA DINIY VAZIYATNI SOG'LOMLASHTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI.

3.1. Yoshlar o'rtasida diniy-ekstremistik g'oyalar tarqalishining oldini olish va diniy vaziyatni sog'lomlashtirish mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Ekstremizm, terrorizm mavzusini yoritishda mamlakatimizda ta'min etilgan din, vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi doir qonuniy hujjatlar, normalarga, jamiyat hayotida dinning ijtimoiy mavqeiga o'quvchilar diqqatini qaratish lozim. Jamiyat ijtimoiy hayotida diniy tashkilotlar faoliyati, fuqarolarning vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi masalalari har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, milliy va diniy bag'rikenglikning qaror toptirishda ushbu omillar, shuningdek ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot hal etuvchi jihat hisoblanadi. Mamlakatimizda har bir fuqaro uchun vijdon erkinligining kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi asosiy qonunimizning 31-moddasila belgilab qo'yilgan¹.

Ijtimoiy tadqiqotlarda vijdon erkinligi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, umazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagilarni bildiradi: har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy meyorlarni buzmagan holda vijdoni buyurganicha yashash, ishslash imkoniyati. "Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitusiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki

¹ O'zbekiston respublikasining konstitusiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2013. 9-b

qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘ymaydi”¹.

Huquqiy nuqtai nazaridan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi.¹ Ayonki vijdon erkinligi negizida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ahloqiy tushunchalar yotadi. Xalqaro normalarda vijdon erkinligi demokratianing ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Biz bu tahlilda vijdon erkinligi atamasini fuqarolarning diniy erkinligi nuqtai nazaridan izohlashni maqsad qilib qo‘yganmiz. Hozirgi kunda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi barcha dunyoviy davlatlarning ijtimoiy hayotida muhim va shu bilan birga murakkab masalalaridan biri bo‘lib kelgan.

Agar umuminsoniy normalarga kelsak, BMTning Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, dunyoviy davlatlarning Konstitusiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o‘z ifodasini topgan. Xalqaro tashkilot tomonidan 1948 yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumiy jahon deklaratsiyasi»ga muvofiq har bir inson erkin fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini va e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini, diniy ibodatlarni bajarishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar bilan birgalikda qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» ning 18-moddasida esa «Din yoki e’tiqodga sig‘inish erki qonunda belgilab qo‘yilgan va jamoat havfsizligini saqlash, tartib, sixat-salomatlik va ahloq-odobni saqlash uchun, ayni vaqtda boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkinliklarini saqlash uchun zarur bo‘lgan cheklashlargagina nozil bo‘ladi», - deb ta’kidlangan.

Qayd etib o‘tilganidek vijdon erkinligi tushunchasi ko‘p qirrali tushunchadir. Bu – avvalo dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi; barcha fuqarolar uchun ularning dinga e’tiqod qilish yoki

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6сон, 99-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2008 y., 52-сон, 513-modda

¹ Qarang. Islom: ensiklopediY. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2004., 63-bet.

qilmasligidan qat’iy nazar maorif va madaniyat maskanlari eshiklarining ochiqligi; maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi; dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning yaratib berilganligi va boshqalardan iborat.

Shu o‘rinda o‘quvchilar e’tiborini O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘ratasidagi munosabatning asosiy tamoyillariga qaratib o‘tish joizdir. O‘zbekiston Respublikasining din va diniy tashkilotlar bilan munosabati, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi tegishli moddalarida aks etgan Vijdon erkinligi, shuningdek «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»¹ qonun xalqaro hujjatlardagi talablarga mos tuzilganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanar ekan, din bilan munosabatini quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Dinning davlatdan, davlatning diniy tashkilotlardan ajratilganligi. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ‘ibotiga oid faoliyatini mablag‘ bilan ta’minlamaydi.
2. Dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish, diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.
3. Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik.
4. Ma’naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot yo‘llarini izlash zarurati.

¹ Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 99-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 52-son, 513-modda

5. Dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish.

6. Dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo‘naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta’minlashdan iboratdir¹.

Mavjud muammolarni hal etish ta’lim-tarbiya tizimi oldiga qator vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan:

Birinchidan, davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo‘lmish qaror topgan diniy bag‘rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish.

Ikkinchidan, islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko‘plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash buyicha konveyer tashkil etayotgan, halifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash borasidagi ma’rifiy ishlarni kuchaytirish;

Uchinchidan, turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta’sirchanligini oshirish;

To‘rtinchidan, missionerlik harakatining oldini olish, yoshlarni chet el OAV orqali tarqatilayotgan turli habarlar ta’siriga berilib ketishini oldini olish bo‘yicha tadbirlar uyushtirish va boshqalar.

¹ Jumaniyozov X. Sobirova M. Nigmanova U. Globallashuv asoslari. 154-b

3.2. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari.

Mavzu	ЁШЛАР ЎРТАСИДА ДИНИЙ-ЭКСТРЕМИСТИК ФОЯЛАР ТАРҚАЛИШИННИГ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ДИНИЙ ВАЗИЯТНИ СОГЛОМЛАШТИРИШ
--------------	--

1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqtি-2 soat	O‘quvchilar soni: 25 – 35 gacha
mashg‘ulot rejasи	<p>1. Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni.</p> <p>2. O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalalar tarqalishining oldini olish, diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan siyosatning mohiyati.</p> <p>3. Diniy – ekstremistik g‘oyalarning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.</p>
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	O‘quvchilarga globallashuv sharoitida Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlarini falsafiy tahlil etish va uning oqibatlari ta’sirini tushuntirib berish va unga qarshi kurashda ta’lim tizimi oldidagi vazifalarni tushuntirib berish.
pedagogik vazifalar:	<p>O‘quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni, uning zararli xurujlar haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. • Ekstremistik g‘oyalarning milliy rivojlanishga o‘tkazayotgan ta’siri va uning oqibatlarini tushuntirib berish. • O‘quvchi yoshlarda buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi g‘oyaviy salohiyatni tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat ruhini tarbiyalash. • O‘quvchi yoshlarda buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi g‘oyaviy salohiyat yuksaladi, tinchlikni, qadrlashadi, ularda Vatanga muhabbat ruhi yanada oshadi.
Ta’lim berish usullari	“piramida”, “Qanday”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalardan foydalanish, muammoli usul, munozara, suhbat, aqliy hujum, tezkor-so‘rov
Ta’lim berish shakllari	Jamoaviy, guruhlarda ishslash;
Ta’lim berish vositalari	Ma’ruza matni, o‘quv materiallari, marker, skotch, qog‘oz
Ta’lim berish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob

Mavzu : “YOSHLAR O’RTASIDA DINIY-EKSTREMISTIK G‘OYALAR TARQALISHINING OLDINI OLISH VA DINIY VAZIYATNI SOG‘LOMLA ShTIRISH” mavzusida nazariy mashg‘ulotning

TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish jarayonlari vaqtি</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>O‘quvchi</i>
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)</p> <p>1.4. Mashg‘ulotni o‘tkazish shaklini e’lon qiladi</p>	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (40 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo‘yicha ma’ruza qiladi (2-ilova) Ma’ruza bo‘yicha “piramida” usulidan foydalangan holda o‘quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Diniy ekstremizm nima? (3-ilova)</p> <p>2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruza qiladi (4-ilova). Ma’ruza bo‘yicha «Qanday» usulidan foydalangan xolda o‘quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Ma’nnaviy tahdidlarni tahmin etuvchi vositalar nima? (5-ilova)</p> <p>Mavzuning uchinchi punkti e’lon qilinadi. (6-ilova)</p> <p>Mavzuda bayon etilgan masalalarni mustahkamlash «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (7-ilova). Bu texnika guruhlarda ijodiy ishlashga yordam beradi, qo‘sishma ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalg qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.</p>	Yozadi, savolga javob beradi.
3 bosqich. Yakuniy bosqich (30 daqiqa)	<p>3.1 Mavzu bo‘yicha umumiyl xulosa qilinadi.</p> <p>3.2. O‘quvchilarning baholash mezonlarini e’lon qilinadi</p> <p>3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (8-ilova)</p>	Tinglaydilar Yozib oladi Javob yozadi
	3.4 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Aqliy xujum” usulida jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi (8-ilova).	”Insert” usulida jadvalni to‘ldiradi.

**MAVZU: YoShLAR O'RTASIDA DINIY-EKSTREMISTIK G'OYaLAR
TARQALISHINING OLDINI OLISH VA DINIY VAZIYATNI
SOG'LOMLASHTIRISH**

Reja.

1. Diniy fundamentalizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni.
 2. O'zbekistonda yoshlar o'rtasida diniy-ekstremistik g'oyalar tarqalishining oldini olish, diniy vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan siyosatning mohiyati.
 3. Diniy – ekstremistik g'oyalarning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.
- **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'quvchilarga Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni, uning zararli xurujlar haqida tushuncha berish.
 - O'quv faoliyatining natijasi:** Terrorizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni, uning zararli xurujlar haqida tushunchaga ega bo'lishadi.

1. Diniy fundamentalizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni.


Fundamentalizm so'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, asos, poydevor ma'nosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga hos bo'lib, unda dinning asli qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi.

Fundamentalizm – ya'ni aqidaparastlik – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – ma'lum din, shu jumladan Islom dini aqidalarning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo'jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy, so'zma-so'z talqini tarafdoi bo'lgan qarashdir. Bunday qarash tarafдорлari diniy aqidalarning har qanday majoziy talqiniga, izohlanishiga murosasizliklari bilan ajralib turadilar.

Diniy fundamentalizm – din aqidalarini so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini e'tiqodi shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.

1-o‘quv to‘shiriq
«piramida» organayzerini to‘ldiring

Diniy fundamentalizm va ekstremizm nima?



2-MASALA BAYONI. O‘zbekistonda yoshlар o‘rtasida diniy-ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish, diniy vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan siyosatning mohiyati. O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘ratasidagi munosabatning asosiy tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasining din va diniy tashkilotlar bilan munosabati, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi tegishli moddalarida aks etgan Vijdon erkinligi, shuningdek «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» qonun xalqaro hujjatlardagi talablarga mos tuzilganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanar ekan, din bilan munosabatini quyidagi tamoyillarga asoslanadi:


1. Dinning davlatdan, davlatning diniy tashkilotlardan ajratilganligi. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ‘ibotiga oid faoliyatini mablag‘ bilan ta’minlamaydi.
2. Dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish, diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.
3. Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik.
4. Ma’naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot yo‘llarini izlash zarurati.
5. Dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish.

6. Dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlashdan iboratdir

5-ilova

1-o'quv to'shiriq
«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



3-masala: Diniy – ekstremistik g‘oyalarning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.

XX asrning 90 yillariga kelib «ikki qutbli mafkura» o‘rtasidagi kurashga barham berildi. Ammo, dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar to‘xtab qolgani yo‘k. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar turli yo‘llar bilan amalgalashirilmoqda. Bunday mafkuraviy ta’sirlardan mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo hududi ham chetda qolgani yo‘q. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g‘oyasiga zid bo‘lgan yot va begona g‘oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug‘vor maqsadlarni amalgalashirishga qarama-qarshi quyishga urinishlar bo‘lganligi hammamizga ayon. Ular o‘zlarini «do‘sit», «vatandosh», «dindosh» etib ko‘rsatish niqobi bilan o‘z g‘oyalarini amalgalashirishga urindilar.

Vijdon erkinligining kafolatlari ko‘p qirralidir. Bu – avvalo dirlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi; barcha fuqarolar uchun ularning dinga e’tiqod qilish yoki qilmasligidan qat’iy nazar maorif va madaniyat maskanlari eshiklarining ochiqligi; maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi; dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning yaratib berilganligi va boshqalardan iborat.

**2-o‘quv to‘shiriq
FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o‘quv jarayonini baxs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o’rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog’ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Diniy –ekstremistik g‘oyalarning asosiy ko‘rinishlari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Ma’naviy xurujlarga qarshi kurashda ta’lim tizimi oldidagi vazifalar?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

8-ilova

Umumlashtiruvchi savollar:

1. Диний экстремизм нима?
2. Терроризм ва фанатизм нима?
3. Виждон ва эътиқод эркинлиги нима?
4. Дин глобаллашувини та’min etuvchi vositalar?
5. Mafkuraviy globallashuv nima?
6. Ma’naviy globallashuv nima?

XULOSA

Ekstremizm, terrorzim hodisalari, uning mazmun-mohiyati, ijtimoiy havfi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, dinlararo munosabatlar, diniy bag'rikenglik kabi masalalar barcha davrlarda ijtimoiy fanlar vakillarining diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Globallashuv sharoitida esa, ushbu masalalarga bo'lgan ilmiy qiziqish uzluksiz kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha globallashuv jarayonining ijtimoiy-tarixiy mohiyati, jamiyat sohalarida namoyon bo'lish xususiyatlari bilan bog'liq masalalarining atroficha tahlili O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqida, 2017 yil 15 iyundagi "Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik" mavzusidagi nutqida Markaziy Osiyodagi vaziyat, havfsizlikka tahdidlar, ekstremizm, terrorizm masalalari, bunday tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikni ta'minlash masalalariga, bu boradagi ustuvor vazifalarga keng e'tibor qaratib keladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov ham o'z asarlarida chiqishlarida Markaziy Osiyodagi havfsizlik masalasini keng tizimli tahlil etishga, uning yechimida hamkorlikda harakat qilishga keng jamoatchilik e'tiborini qaratib kelgan.

Bizning oldimizdagi galdeg'i vazifa uning ijobiy tusdagi namoyon bo'lishi holatlarini kengaytirish, salbiy tomonlarini esa imkon doirasila kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek ekstremizm va terrorizmning madaniy yoki ma'naviyat, jinoyat yoki iqtisodiyot sohasidagi namoyon bo'lish holatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilgan. Lekin masalaga, tizimli, kompleks holda yondashuv bilan bog'liq tadqiqotlar kam. Shunday ekan bu tadqiqotni dastlabki urinishlardan biri sifatida baholab keyingi tahlillarda quyidagi vazifalarga keng e'tibor berish zarur.

Avvalo, ekstremizm va terrorizm hodisasiga kompleks, tizimli yondashuvlarni, tahlillarni yanada kuchaytirish zarur. Uning mohiyati, namoyon

bo‘lish sohalari, millat hayotidagi aksi bilan bog‘liq tahlillar olib borish davr taqozosidir.

Ikkinchidan, umumta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlar bilan ishlashda, ta’lim-tarbiya jarayonida ekstremistik-terroristik hatti-harakatlarning mazmun-mohiyatini yoritishda amaliy misollardan keng foydalanish, bunday hg‘arakatlardan ko‘zlangan maqsad, uning ijrochilari, ortida turgan markazlar faoliyati haqida ishonchli misollardan, hayotiy voqealardan foydalanish.

Uchinchidan, ekstremistik, terroristik g‘oyalarning globallashuvi sharoitida turli tahdidlardan himoyalash bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlarni kuchaytirish zarur.

To‘rtinchidan, yoshlarimiz qalbini turli axborot xurujlaridan himoyalash borasida ularni mobil va internet vositalaridan foydalanishlarini legallashtirish bilan bog‘liq mexanizmlar tizimini ishlab chiqish zarur. Axborot huruji muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularni hissiyotlari, e’tiqodi va tuyg‘ulariga ta’sir etishning mafkuraviy omillaridan, turmush tarzi va mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun moddiy, iqtisodiy, ma’naviy ta’sir o‘tkazishning noan’anaviy va noxolis munosabatlaridan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasi ekanini yoritish, unga qarshi yoshlarmizda mustaqil fikrni, ozod shaxs, erkin fuqaroning asosiy jihatlarini tarbiyalash bilan bog‘liq vazifalarga ustuvor yo‘nalish berish talab etiladi.

Oltinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, ruhida, yuksak ma’naviyatli etib tarbiyalashda uch tabarruk makoniga alohida e’tibor yanada kuchaytirish zarur: ularning birinchisi – oila, ikkinchisi – mahalla, uchinchisi – ta’lim-tarbiya tizimi. Agar shu uch makonda ma’naviy muhit ko‘ngildagidek bo‘lsa, hamma ish ko‘ngildagidek bo‘ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. MEYORIY-HUQUQIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: «Adolat», 1998.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. /«Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «Sharq», 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” Qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda*)
6. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.
7. “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiysi amaliyatga tabiq etishning dolzarb masalalari”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-5465, 14 aprel 2019 yil

II. RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018
3. Karimov I. A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. Asarlar, 6-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
4. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1999.
5. Karimov I. A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2002.
6. Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. Asarlar, 13-jild. –T.:«O‘zbekiston», 2005.
7. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. –T.:«Ma’naviyat», 2008.

8. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O‘zbekiston», 2011.

III. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me’rosi nashriyoti, 1993.
2. Abbosxo‘jayev O. Mustaqillik nega muqaddas. –T.: «O‘zbekiston», 2004.
3. Abdullayev I. Muqaddas dinimizga isnod keltirmaylik (Maqolalar). Namangan, «Namangan», 1999.
4. Abdullayev Y. Vahhobiylar ildizlari. Farg‘ona, «Farg‘ona», 1998.
5. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O‘zbekistonga kirib kelishi. –T.: «Akademiya», 2000.
6. Abdullatif qori Xoshimjon qori o‘g‘li. Zalolatga ketmang! Xizbut-tahrir fitnasidan ogoh bo‘ling. –T.: «Movarounnahr», 2003.
7. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. –T.: «Movarounnahr», 2003.
8. Abdurahmonov A., Boydadayev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, «Namangan», 2001.
9. Boboyev H., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. –T.: «Yozuvchi», 1999.
10. Jumaniyozov X.S. Sobirova M.A. Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. Monografiya. T.: 2015.
11. Jumaniyozov X.S. Nigmanova U. Globallashuv asoslari: o‘quv qo‘llanma.- Toshkent.Nodirabegim, 2020.-282 b.
12. Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorzimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent, 2019.
13. Mirhamidov M.O‘zbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish yo‘lida. –T.: Universitet nashriyoti, 2003 yil.
14. Gafarli M.S., Kasayev A.ch. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. –T.: «O‘zbekiston», 2001.
15. Ochigliyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muharrir», 2009.
16. Otamurotov S. Globallashuv va millat. T. 2008.
17. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. T.2013.
18. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –T.: “Akademiya”, 2008.
19. Terrorizm – taraqqiyot kushandas. Toshkent, 2002.
20. Tulepov A. ISHID fitnasi. –T.: «Movarounnahr», 2015
21. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. T.: “Ma’naviyat”, 2006.

Ubaydullaev U. Xalqaro terrorizm: tarixi va zamonaviy muammolari. –T.: «Universitet», 2002.

22. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2009 yil.

23. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari.-T.: “O‘zbekiston”, 2013.

IV. INTERNET SAYTLARI

1. [ww. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
4. [www. ma’naviyat. uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. [www.bilim.uz.](http://www.bilim.uz)

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHА VA IBORALAR

№	O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha
1	Ma’naviy taxdidlar	Duxovnye ugrozы	The spiritual threats
2	“Ommaviy madaniyat”	“ObЩestvennaya kultura”	“The public culture ”
3	Ma’naviy – marifiy muhit	Duxovnye obrazovaniye sferu	Spiritual - education environment
4	Yoshlarni “ ommaviy madaniyat” ta’siridan asrash	Berech molodyoj vlyanie “obЩestvennaya kultura”	The protect young people from the effect of “ the public culture”
5	Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch	Vысокое духовное — непобедимую силу	High morality is unbeatable power
6	“Ma’naviy – marifiy muxitni sog‘lomlashtirish	Выт здоровье духовную и образованием сферу	The regain health the spiritual education environment
7	Milliy an’ana va qadriyatlar	Natsionalnaya traditsiya i obichiya	National traditional and values
8	Axborot globallashuvi	Informatsiya globalinnost	The globalization of information
9	Mafkuraviy ta’sirlar	Ideologicheskiy vlyanie	The ideological influences
10	Ma’naviy – axloqiy tarbiya	Duxovnye - povedenye vospitanie	The spiritual - moral upbringing
11	Vatanga muxabbat	Lyubov k Rodine	The love to homeland
12	Yosh avlod ma’naviy olami	Duxovnyy mira molodyojsnym pokalenie	The spiritual world of young generation
13	Mafkuraviy immunitet	Ideologicheskiy Immunitet	Ideological immunity
14	Ma’naviy tajovuz	Duxovnoe napadenie	Spiritual aggression
15	Sharqona axloq kodeksi	Vostochnye eticheskie kodeks	The cod of eastern ethic
16	Axborotlar xuruji	Informatsionnaya ugroza	Informations attack
17	Milliy qadriyatlar	Natsionalnaya sennost	National values
18	Umuminsoniy qadriyatlar	Общечеловеческие Сенности	Values which belong to common to all monkind
19	Global muhit	Globalnyy sfera	Global environment
20	Yuksak texnologiyalar zamoni	Era высоких технологий	High technologies age
21	Axborot asri	Informatsionnyy vek	Century of information
22	Milliy-ma’naviy xavfsizlik	Natsionalno - duxovnoe bezopasnost	National spiritual safety
23	Xalqaro tashkilotlar	Mejdurarodnye organizatsiya	International organazitions
24	Globallashuv jarayoni	Protsess globalizatsii	Globally protsess
25	Globalistlar	Globalisti	Globalists

26	Aksilglobalistlar	Aksilglobalisti	Aksilglobalists
27	Zamonaviy texnologiya	Sovremennye texnologii	Modern technologic
28	Butun jahon internet tarmog‘i	Vsemirnyy internet set	World wide web
29	Mentalitet	Mentalitet	Mentalilation
30	Axborot va texnologiya taraqqiyoti	Informatsionnye i Texnologicheskie razvitiie	Development of information and technology